



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

**1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛИК СТАТУС БЕРИЛГЕН КҮН**

3. Нишнонова З.Т. Ижодий мустақил фикрни тарбиялашда ўқитувчининг ролини янада ошириш // Таълим ва тарбия, 2001. – № – 1-2.
4. Mahkamova Sh.R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni musiqiy tarbiyalash va ta'lim berish. Scientific progress, 2021. Special Issue 5, pp.224-228
5. Mahkamova Sh.R. Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси. Экономика и социум 2021. 1-11 №11(90) 2021

REZYUME

Ўзбекистонда барча соҳалар қаторида мусиқа санъатини ривожлантириш ва уни демократик жамият шароитига мос тарзда бошқариш амалга оширилмоқда. Биз бу ўринда мусиқа санъатининг инновацион бошқарув технологияси тўғрисида сўз юритамиз.

РЕЗЮМЕ

В Узбекистане развитие музыкального искусства и управление им в соответствии с условиями демократического общества осуществляется по всем направлениям. Здесь речь идет об инновационных технологиях управления музыкальным искусством.

SUMMARY

In Uzbekistan, the development of the art of music and its management in accordance with the conditions of a democratic society are being carried out among all fields. Here we are talking about the innovative management technology of music art.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA TA'LIMIY-TARBIYAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.

Xo'jamqulov P.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Musayev N.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Muminova D. I.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

Tayanch so'zlar: Ta'lim-tarbiya, immunitet, yosh avlod, pedagogika, fikr- g'oya.

Ключевые слова: образование, иммунитет, молодое поколение, педагогика, мысль и идея.

Key words: education, immunity, young generation, pedagogy, thought and idea.

Juda tez o'zgarayotgan hozirgi zamonda ma'rifat sohasida nafaqat ta'lim-tarbiya balkim har bir sohada yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda milliy va umumbashariy madaniy estetik qadryatlar insoniyat hayotida har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida o'zlarining g'arazli niyatlarini amalga oshirishga intilayotgan, o'zlarining bunday jirkanch muddolariga ommaviy madaniyatni targ'ib qilish orqali erishishga intilayotgan qora kuchlar mavjudki, ular ijtimoiy ongi shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribalari yetarli bo'lmagan yosh avlodga ta'sir etishning turli vositalari, usullaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Bu xususida birinchi prezidentimiz "yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarlarida shunday yozgan edilar: "... "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning orqasidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadryatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi". Shunday ekan oilada, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, bolalar va o'quvchi-yoshlar bilan ishlash shakl-tamoyillarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya ishlari jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng tadbiiq etish bugungi kundagi dolzarb vazifalar sarasiga kiradi. Pedagogik amalyotni bola tabiatiga muvofiqlashtirish zarurligi, aks holda bola shaxsiyatini sindirib qo'yish mumkinligi aytilmoqda.

O'z zamonasinig yetuk pedagoglaridan K.D. Ushiniskiy pedagogikani fan emas, san'at deb atagan edi. SH.A. Amonashvili, K.D. Ushiniskiyning fikrini rivojlantirib, san'atlar orasida eng murakkabi va muhimi deya qo'shimcha qiladi. Ta'lim-tarbiya san'ati bola ruhiyatini chuqur tadqiq etib, undan so'ng bu jarayonga kirishishni taqozo etadi. Bugungi kunda bolada mustaqil fikrlashni rivojlantirish insoniy fazilatlarini singdirish bilan birga olib borilsagina, ta'lim-tarbiya o'zini oqlashi mumkin. Ilgari surilayotgan fikrimiz mohiyati yoshlar ongini salbiy ta'sirlardan saqlash borasida turli qarashlar, tavsiyalar berilayotgan bir vaqtda o'z qarashlarimizni ifodalashdir. Bunday holatda bir tomonlama tarbiya metodlaridan foydalanish va chegaralanish maqsadga muvofiq emas va aksincha o'quvchi yoshlarda milliy istiqlol g'oyalari asosida g'oyaviy estetik immunitetni shakllantirish sifatini yuqori pag'onaga ko'tarish asosiy masaladir.

Aslida "immunitet" so'zi biologik tushuncha sifatida tirik organizimning tashqi ta'sirlarga chidamlilik va yashovchanlik ma'nolarini anglatadi. Tarbiyada "immunitet" so'zi xozirda keng qo'llanilayotgan tushunchadir. Tarbiyaviy immunitet shaxsning ma'lum ijtimoiy muhit ta'sirida, olgan bilimlari, natijasida unda shakllantirilgan tushuncha, fikr va g'oyalar tizimini ostida faoliyat ko'rsatishda ularning ustuvor ahamiyati kasb etishi hamda shaxsning xarakter xususiyatiga aylanganligini ifodalovchi ilmiy-pedagogik tushuncha deb qarash fikrimizni oydinlashtiradi. Ana shu tarbiyaviy immunitet shaxsni jamiyatdagi muayyan maqsadlar va ustuvor tamoyillar asosida shakllangan dunyo qarash tizimi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Insonda shakllangan estetik xis-tuyg'u va kechinmalar qarashlar hamda e'tiqod o'ziga xos xarakteri tarkib toptiradi. Bunday estetik his va ezgulik asosida tarbiyalangan shaxs hech qachon, har qanday xolatlarda o'zligini yo'qotmaydi va o'zini, o'z ruhiy holatini boshqara oladi. Bugungi kunda ommaviy madaniyat quroli turli axborot vositalaridir. Xususan, internetdagi turli saytlar orqali kinofilmlar maishiy hayotimiz va ehtiyojimiz bo'lgan ust-bosh va boshqa anjomlar kabilarda o'z ifodasini topmoqda. Bunday yashirin salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi va ularga yuz foiz to'siq qo'yish chegaralash imkoniyati yo'q. Ko'rinib turibdiki, salbiy ta'sirlar qo'rshovidan faqat biz ilgari surayotgan va xozirda o'z isbotini topgan tarbiya immuniteti masalasiga urg'u berish, insondagi estetik his-tarbiya immuniteti asosi sifatidagi jihatlarni tadqiq qilishdir. Barkamol avlod tarbiyasida tarbiya jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq pedagogik jihatdan to'g'ri, sermahsul bo'lishi uni mahorat bilan tashkil etilishi va uyushtirilishiga bog'liq. Yosh avlodni aldamchi, buzg'unkor, begona ta'sirlardan saqlash, ularga xayotda yengil yelpi munosabatda bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik voqellikka ko'r-ko'rona munosabatda bo'lishlarini oldini olish orqali ularda ongli munosabatni, ezgu o'y, fikrlarni shakllantirish ijtimoiy faol shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish orqali yoshlar ma'naviy saviyasini yuksaltirish imkoniyatlari kengayadi. Tarbiyalanuvchi shaxsda tarbiyaviy immunitet hosil bo'lishiga erishuv orqali har qanday tashqi ta'ir muammolari o'z yechimini topadi.

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlod tarbiyasida tarbiyaviy immunitetni hosil qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish o'rinlidir:

- O'quvchilarda, xususan boshlang'ich sinflarda o'quv-bilish faoliyati jarayonida vatan, vatanparvarlik tushunchalarini boyitishga va ularda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirib borish;
- Jamiyatimizdagi ustuvor huquqiy, axloqiy me'yorlarga rioya etish va ularning zarurati haqida izchil va muntazam ravishda bilimlar berib borish;
- O'quvchilarda sog'lom turmush tarziga amal qilish, yashash va olam go'zalligini his qilishga, ezgulik hislarini tarbiyalash xayotiyligini ta'minlash;
- Xalq pedagogikasi materiallaridan unumli va o'rinli foydalanish;
- Mamlakatimizda dunyoda ro'y berayotgan voqealarga to'g'ri munosabatlarni shakllantirish;
- O'tkazilgan tadbirlarni pedagogik jihatdan to'g'ri yondashgan holda o'quvchilar faolligida tashkillashtirish va olib borish;
- O'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlari orqali milliy an'analarimizni rivojlantirishga hissa qo'shuvchi, kasb-hunarga o'rgatuvchi san'at turlarini egallashga moyillik tuyg'ularini shakllantirib borish va bu borada ko'rik-tanlovlar o'tkazib borish va bu borada ko'rik-tanlovlar o'tkazib borish;

- Xozirda o'quv-tarbiya muassasalari xilma-xilligidan kelib chiqib ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar kamolotini ta'minlovchi ta'lim-tarbiyaviy shartnoma va kelishuvlar asosida hamkorlikda yagona pedagogik jarayonni mazmunan boyitish;

- O'quv-tarbiya muassasalari, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligini amaliy jihatdan yuqori saviyada olib borishga erishish;

- Jamiyat va tabiatdagi go'zallikni his ettirish ko'nikmalarini tarkib toptirish orqali ma'naviy muhofaza qila olish imkonini yaratish;

Dunyoda bilim va ma'rifatning chegarasi yo'q. Har bir narsadan unumli ya'ni foydali bilimlarga vaqt ajratish, yaxshi-yomon va aralash-quralash bo'lib yotgan bu hayotda avvalo yaxshi narsalar tanlashga intilish lozim. Buning uchun esa u yomonning nima uchun yomonligi, yaxshining yaxshiligi sababini bilish joizdir. Inson, fikri va didi, tuyg'ulari o'sib-o'zgarib borgani sari u yaxshi narsalar orasida ham eng yaxshisini tanlashga harakat qiladi. Shu tarzda uning fikri va tuyg'ulari sog'lom bo'lgan inson esa jiddiy fikrlay oladi, mustaqil bo'ladi, ko'p adashmaydi.

Mustaqilligimiz, Prezident va xukumatimizning mamlakatimizni taraqqiy etishi borasidagi to'xtovsiz sa'y-harakatlari tufayli hozirda taxlikali bir zamonda respublikamizda tinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hukm surmoqda va taraqqiyotga yuz tutmoqda. Respublikamiz fuqoroligining qonuniy huquqva erkinliklari konstitutsiya asosida ta'minlagan. Xar bir fuqaro qayerda bo'lishidan qat'iy nazar huquqiy jihatdan o'z o'rniga ega bo'lgan shaxs fuqaro sifatida mamlakat ichkarisi va tashqarisida davlat himoyasida bo'lishi qonunlarimizda va amalyotda o'z ifodasini topgan. O'z navbatida fuqorolarimizning ongli, faol pozitsiyaga ega bo'lishlari o'z haq-huquqlarini bilish, unga amal qilish hamda burchga sadoqat hislariga ega bo'lishlikni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

- 1."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" I. A. Karimov Toshkent "Ma'naviyat" 2008
2. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" M. Qarshiboyev, S.Nishonova.7-sinf. Toshkent "Ma'naviyat" 2007
3. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish- eng oliy saodatidir" I. A. Karimov Toshkent "O'zbekiston" 2013
- 4.Ma'naviyat asoslari E. Umarov, M. Abdullayev Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiyot uyi Toshkent 2006

REZYUME

Maqolada yoshlarni ongini salbiy ta'sirlardan saqlash borasida turli qarashlar va ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о различных взглядах на защиту сознания молодежи от негативных воздействий и способах формирования учебно-воспитательного иммунитета.

SUMMARY

The article talks about different views on protecting the minds of young people from negative influences and ways of forming educational and educational immunity.

O'QUVCHILARGA XONANDALIK ASARLARINI ERKIN VA IFODALI KUYLATISH USHLARI

Qayumov J.S.

Chirchiq davlat pedagogika

universiteti

Tayanch so'zlar: musiqa o'qituvchisi, kasbiy mahorat, xonanda, ma'naviyat, musiqa madaniyati.

Ключевые слова: учитель музыки, профессиональное мастерство, певец, духовность, музыкальная культура.

Key words: music teacher, professional skill, singer, spirituality, music culture.

Bolalikda o'smirlikka o'tish yoshida bolalar faollashadilar, kuch-quvvatlari o'sadi. Bolalarda did, havas va biror narsaga nisbatan qiziqish orta boshlaydi. 11-12 yoshga kelib